



## S.MAJITOV ALIFBOSI: QORAQALPOQ YOZUV TIZIMI SHAKLLANISHIDAGI MUHIM BOSQICH

Tursinmuratova B.M.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va  
madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18438387>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil  
Ma'qullandi: 28-yanvar 2026 yil  
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

### KEYWORDS

S.Majitov, "Alifbe", "O'quv kitobi"  
,namuna, qoraqalpoq  
xalqi,ma'rifatchilik,  
maktab,qoraqalpoq tili,maqollar,  
topishmoqlar,ertaklar.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada qoraqalpoq ma'rifatparvari, S.Majitovning adabiy merosi tahlil qilinadi.Xususan, uning 1925-yili qoraqalpoq tilida tuzgan birinchi "Alifbe"sining ahamiyati haqida so'z yuritiladi. "Alifbe"da berilgan xalq og'zaki adabiyotining boy namunalari - maqol-matallar, ertaklar, tez aytishlar, bolalar o'yinlaridan keng foydalanganligi ko'rsatiladi. Alifbe ham qoraqalpoq xalqining kundalik turmush tarzida muhim o'rin tutgan asbob-uskunalar haqida ma'lumotlar berilgan. S. Majitovning bu asari yosh avlodni ona tilida o'qitish, milliy dunyoqarashni shakllantirish va xalq pedagogikasini ta'lim jarayoniga joriy etishdagi tarixiy ahamiyati ochib beriladi. Maqolada shuningdek S.Majitovning muzey fondida saqlanayotgan "Alifbe" kitobi, "o'quv kitobi," eng birinchi gazeta nusxasi va kitoblarining tarixiy va madaniy qimmatini ochib beriladi.*

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Qoraqalpog'istonda ilm-fan sohasida adabiyot, madaniyat sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz bera boshladi. Qoraqalpoq xalqini ilm-fani, madaniyati rivojlangan ilg'or millatlar qatoriga yetkazish uchun o'zining bor kuch-g'ayrati, aql-zakovati va bilimni ayamay sarflagan. O'zimizning xalqimizning ichidan o'sib yetishgan, chiqishi jihatidan millati tatar S.Majitovning o'rni muhim bo'ldi. S.Majitov ma'rifatparvar shoir bo'lib, zamondoshlarini bilim olishga, hunar va texnikani egallashga chaqirdi. Qoraqalpoq xalqini va madaniyatini rivojlangan ilg'or millatlar darajasiga yetkazish uchun o'zining bor kuchini, aql va bilimni ayamay sarflagan shoirlarning biri edi.

Professor I.Sag'itov A.To'qayning sakson yilligiga bag'ishlangan marosimda: "Inqilobgacha Qoraqalpoq xalqida savodli odamlar oz sonda edi. Orol dengizi bo'yiga kelgan birinchi o'qituvchilarning ko'pchiligi sizlarning yurtdoshlaringiz bo'ldi. Birinchi Qoraqalpoq "Alifbesi" bilan "O'qish kitobida" Sayfulg'abit og'a Majitov tuzdi," -degan edi.[Amudaryo, 7/1989 110-111betlar]

S.Majitov yaratgan "Suyun ham Sora" "O'n to'qqiz" "Qolmurod" romanlarini adabiyot olimlari Q.Ayimbetov, N.Japaqovlar zamonida ko'chirib olib o'qib chiqadi. Qoraqalpog'istonda

yoza adabiyot an'alarining pastligi, nashriyot bazasining zaifligi uning ko'p asarlarining, shu jumladan ushbu romanlarining ham vaqtida nashr etilmay qolishiga sabab bo'ladi.

S.Majitov To'rtko'l o'lkashunoslik muzeyida bor kuchi va bilimni ishga solib, ilm-fanni, adabiyotni, madaniyatni rivojlantirishga chaqirib, yangi-yangi qo'shiqlar, hikoyalar yaratadi. Rus yozuvchi shoirlarining asarlarini Qoraqalpoq tiliga tarjima qiladi (Masalan, I.Krillovning masallari). (Amudaryo, 4/1993 109-bet)

Sovet hukumatining o'rnatilishi bilan Qoraqalpog'istonda yangi sovet maktablarini ochish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, xalqning ommaviy savodxonligini oshirish ishlari qo'lga olindi. Shu holatlarga bog'liq Qoraqalpoq tilida birinchi o'quv qurollarini darsliklar tuzish, eng avvalo Qoraqalpoq tilida yozilgan "Alifbe" kitobini yaratish kerak bo'ldi. Albatta, savodsizlikni to'liq tugatishning boshi va asosiy vositasi - "Alifbe" kitobidan boshlanishi kerakligi aniq bo'ldi. Bu hech kechiktirib bo'lmaydigan va juda tez yechim topishi kerak bo'lgan masala edi.

"Qoraqalpoq tilida birinchi alifboni va birinchi darslikni tuzish uchun shunchalik ko'p kuch sarf etildi, -deb yozgan o'z vaqtida K.Avezov va P.Varlamov. [3] S.Majitov qoraqalpoq tilida darsliklarni tuzgan vaqtda mashhur boshqurd olimi, folklorist A.A.Divaev, qozoq yozuvchisi M.O.Avezovlarning maslahatlari unga to'g'ri yo'l-yo'riq bo'ldi. Shuningdek, u rus, tatar, o'zbek pedagoglarining eng yaxshi tajribalaridan erkin foydalanadi. Shuning uchun S.Majitov o'zi tuzgan darsliklarida K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, I.Oltinsarin hikoyalarini, I.A.Krillovning masallaridan misollar keltirdi. Ma'rifatparvar shoir qardosh xalqlar adabiyoti namunalariidan foydalanganda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasini hisobga oldi

Davr talabidan kelib chiqib 1925-yili Toshkentda S.Majitovning muallifligida dastlabki qoraqalpoq "Alifbe"si bosilib chiqdi. S.Majitovning bu kitobi birinchi marta Qoraqalpoq o'quvchilarining o'z ona tilining alifbosini, orfografiyasini, xalq ijodi va tarixiga, turmushiga oid boy materiallar bilan tanishib, ularni o'qib bilishga, milliy ong-sezimining chuqurlashishiga yo'l ochib bergan birinchi universal "Alifbe"-kitobi bo'ldi. "Alifbe"da ertaklar, hikoyalar, maqol-matallar, tez aytishlar va topishmoqlar juda ko'p. Masalan: Y tovushiga: "foydasiz ish poyonsiz" G tovushiga: "Ekin ekkan tekin ichar" degan maqol-matallar berilgan. Alifbedagi maqol-matallarning ko'pchiligi o'qish-bilimni, mehnat qilishni, talab qilishda va yana boshqa insoniy fazilatlarini namuna tutishni, yomon odatlardan uzoq bo'lishni nasihat qiladi. "yig'lay-yig'lay ariq qazisang, kula-kula suv ichasan." "qanoat qorin to'ydiradi, qanoatsizlik barin yo'qtiradi."

"Yo'lbars bilan Qirg'ovul" degan ertakda. "Alifbe"da tez aytishlar va topishmoqlar alohida-alohida dars sifatida bo'lib berilgan. Masalan, "Chig'irni chambaraklashga quv chatdan yosh chat yaxshi," "kishiga so'k o'tlatmagay, so'k o'tlatsa ham, ko'p o'tlatmagay," "erkak kishiga kalapatlatmagay, kalapatlatsa ham, kalapatlatmagay" va h.k.

"Alifbe"da muallif har bir yangi tovushni o'rgatish uchun bolalarning tushunishiga oson, aniq ma'noli so'zlarni, ayniqsa ulardan kam bo'g'inli so'zlarni qo'llagan.

Tez aytishlarni muallif uch marta takrorlashni tavsiya etadi. Shunga o'xshash "Alifbe" sahifalarida ko'plab metodik ko'rsatmalarni uchratish mumkin. Bu uning nafaqat muallif sifatida, balki uning chuqur bilimli pedagog o'qituvchi, amaliyotchi-metodist bo'lganligidan ham dalolat beradi.

So'zimiz dalili sifatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida (o'lkashunoslik) saqlanayotgan, S.Majitovning "O'quv kitobi," "Kattalar savodxonligi," "Qoraqalpoq tili," "O'quv kitobi" (KP 2439/1 KP 2440/1) asarlarining nusxalarini ko'rishimiz mumkin.

1929-yili jamoa muallifligida chiqqan "Qoraqalpoq Alifbosi" (Kp 2395/1) asosan S.Majitovning "Alifbe" kitobi namunasida yozilgan. Undagi o'rin olgan qoraqalpoq bolalar xalq o'yinlarining nomlarini keltirib o'tsak, shu kunimizda qo'llanilishdan chiqib qolgan, ma'nosi yo'qolib ketgan nomlarni topsak bo'ladi. Bular: Taydirma, kateb, saxa, yasovul, shikka, bukka, chuyirma va h.k. Alifbeda oshiq o'yinidan tashqari yana ko'plab o'yin nomlari va tartib qoidalari keltiriladi. Masalan, cho'llik, qocharman, surma to'p, to'pli toyg'oq, havo to'p, angaloq to'p, qarshi keldi, qoqchimay, cho'ytastamoq, toqiya teppak, it quyruq, kim urdi, toqim durra va h.k. Yana "Alifbe" ga asarlarda kiritilgan.

Masalan, cho'llik, qocharman, surma to'p, to'pli toyg'oq, havo to'p, angaloq to'p, qarshi keldi, qoqchimay, cho'ytastamoq, toqiya teppak, it quyruq, kim urdi, toqim durra va h.k.

Yana "Alifbe" ga asarlarda kiritilgan.

"Mushukni yo'qotgan bolaning qo'shig'i" "Quloq ikki, og'iz bir" "Bolalik chog'im" "Sigir nima deydi" "Ota vasiyati"

Ertaklar: "Laqma it." "Yo'lbars bilan Qirg'ovul" "Qarchig'ay bilan Xo'roz"

Shuningdek, biz e'tibor qaratadigan narsa bu yerda, qoraqalpoq xalqining kundalik turmushiga oid etnografik elementlar keltirilgan. Yana baliqchilik kasbiga oid, baliq tutish asboblari nomlarida keltirib o'tgan. Bular: Sanchqi, cho'lpi, kerey, qarmoq, jeli, cho'qaytma, degdi, qurma ov, norat va h.k. Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan misollar S.Majitovning qoraqalpoq folklorini, xalq pedagogikasini, bolalar folklorini, kundalik xalq turmushini juda yaxshi bilganini va ularni "Alifbe" kitobining maqsad-mazmuniga moslashtirib juda o'rinni foydalanganligini ko'rsatadi.

Atoqli ma'rifatparvar shoir, dramaturg va nosir, madaniyat arbobi S.Majitov 1937-yili "Xalq dushmani" sifatida nohaq ayblanib, 1938-yili To'rtko'l qamoqxonasida vafot etdi. Biroq, unda hech qanday ayb yo'q edi. Shu sababli S.Majitov 1958-yili 29-sentyabrda Qoraqalpog'iston ASSR prokurorining qarori bilan qayta oqlandi. Yozuvchining eng yaxshi she'riy, nasriy va dramatik asarlari qoraqalpoq maktablari bilan maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlarida qayta o'rganila boshlandi. S.Majitovning tuzgan darsliklari va yaratgan badiiy asarlari bugungi kunda ham g'oyaviy-badiiy qimmatini yo'qotmagan. U o'zining to'g'ri so'zligi, halolligi, mehnatsevarligi bilan xalqqa xizmat qilishning haqiqiy namunasini ko'rsatdi. Eski merosga sodiq bo'lgan S.Majitov qoraqalpoq xalqining boshidan kechirgan tarixiy voqealarni yorqin aks ettirgan afsonalarni, klassik shoirlarning she'r va poemalarini to'plab, o'z darsliklarida chop ettirgan edi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, S. Majitov alifbosi qoraqalpoq yozuv tizimini ilmiy asosda shakllantirishga qaratilgan ilk tizimli tajribalardan biridir. Alifboda qoraqalpoq tilining fonetik xususiyatlarini aks ettirishga bo'lgan intilish kuzatiladi hamda bu holat milliy yozuvni standartlashtirish jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatgan. Ushbu alifbo qoraqalpoq yozuvi taraqqiyotida muhim bosqich sifatida baholanadi.

#### Adabiyotlar:

1. S.Majitov "Tanlangan asarlari" Nukus, 1965-yil
2. Avezov K va Varlamov P. "Qoraqalpog'iston Qoraqalpog'istonning 10 yilligiga Olma-Ota"
3. S.Majitov "O'qish kitobi." Toshkent, 1925-y.
4. Musayev A. Birinchi may. Nukus, 1980
5. S.Majitov "Egadalar savodi." Toshkent, 1925-y.
6. Berdimuhamedov A.

7.Qoraqalpoq yozuvi tarixi. – Nukus, 1968.



INNOVATIVE  
ACADEMY